**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Agrobiotexnologiyalar va oziq- ovqat xavfsizligi instituti**

| | | |
|---|---|---|
| Ro‘yxatga olindi:<br>№ БД-60811000<br>2024yil “ 09 30 ” | | **“TASDIQLAYMAN”**<br>SamDU rektori:<br>_____<br>R.I.Xalmuradov<br>2024yil “ ” _____ |

# MEVACHILIK 1-2 QISM
# FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 800000 –Qishloq, o‘rmon baliq xo‘jaligi va veterenariya |
| **Ta’lim sohasi:** | 810000 – Qishloq xo‘jaligi |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik |

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar |
|---|---|---|---|
| MEVA1610<br>MEVA1710 | 2026-2027 | 6/7 | 10 |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | O‘zbek | | 4 |

| | Fan nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Umumiy (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Mevachilik 1-2 qism | 136 | 164 | 300 |

| | Fanning maqsadi (FM) |
|---|---|
| FM1 | **I. FANNING MAZMUNI**<br>**Fanni o’qilishidan maqsad** – meva ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo’lgan talabi to’g’risidagi va mevachilikka yangi kirib kelgan intensiv mevani navlarini ko’paytirishga qaratish.<br>**Fanning vazifasi** - bog’ sharoitida mevalar yetishtirishning ilg’or texnologiyalari to’g’risida, mevalarni ishlatilishi, tashqi muhit omillariga ko’ra guruhlarga ajratish, ko’paytirish usullarini o’rganish, o’simliklarni o’sish va rivojlanish bosqichlarini bilish mevalarni urug’lari hamda ko’chatlari tuzilishi – talabani ushbu fan bo’yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitida qo’llashni o‘rganishdan iborat. |

| | Fan mazmuni |
|---|---|
| | **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** |
| | **6 - semestr** |
| | **Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)** |
| M1 | **Kirish. Mevachilikning ahamiyati, maqsadi va hozirgi ahvoli**<br>Kirish. Mevachilik fan va tarmoq sifatida. O’zbekiston Respublikasida meva va rezavor meva o’simliklarini yetishtirishni xalq xo’jaligidagi ahamiyati. Meva bog’larini davlatlararo va qit’alararo joylashganligi. Mevachilikning dunyo bo’yicha ahvoli. Mevachilikning O’zbekistondagi qisqacha ahvoli va rivojlanish istiqbollari. |
| M2 | **Meva va rezavor meva o‘simliklarining kelib chiqishi, botanik tarkibi va biologik xususiyatlari**<br>Meva va rezavor meva o’simliklarining kelib chiqishi.Meva va rezavor meva o’simliklarining morfo-biologik guruxlari.Urug’li, danakli, rezavor, yong’oqmevalilar va subtropik mevalarning turlari va botanik nomlari.Meva va rezavor meva o’simliklarining yer ustki qismi, xosilga kirishi va yashashiga ko’ra guruxlash. |
| M3 | **Meva va rezavor meva o‘simliklarini o‘sish va rivojlanishi haqida ta’limot**<br>Meva ekinlarining rivojlanish davrlari, yillik o’suv fazalari va tinim davrlari hamda ularning davomiyligi. Meva ekinlarini tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bordoshliligi, tolerantligi. Harorat, yorug’lik, atmosfera gazlariga, havo va tuproq namligiga, biologik omillarga munosabati. |
| M4 | **Mevali o‘simliklarning vegetatsiya va tinim fazalari**<br>Meva o’simliklarini tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bordoshligi, tolerantligi. Harorat, yorug’lik, atmosfera gazlariga, havo va tuproq namligiga, biologik omillariga munosabati. |
| M5 | **Meva ekinlarining tashqi omillarga bo’lgan talabi**<br>Meva ekinlarini generativ yo’l bilan (urug’idan) va vegetativ yo’l bilan (payvand, parxish, qalamchasi, kurtagi va xokazo) ko’paytirishning nazariy asoslari va farq qiladigan xususiyatlari. Payvandtag va payvandustning o’zaro ta’siri. Klon o’zgaruvchanligi haqida tushuncha va yaxshi klonlarni ajratish. |
| M6 | **Meva daraxtlarining yer ustki qismi.**<br>Bog‘ qator oralarini shudgor qilish butun o‘suv davri davomida tuproqda nam to‘plash va namlikni bir me’yorda saqlash, bog‘ qator oralaridan foydalanish, yerni ishlash, sug‘orish va meva daraxtlarini o‘g‘itlash, mulchalash kabi ishlar tushuniladi. |
| M7 | **Meva o’simliklarini ko’paytirishni biologik asoslari**<br>Meva ekinlaridan yuqori hosil olish bog‘larda yuqori agrotexnika kompleksini qo‘llash yo‘li, Meva daraxtlarining qancha suv sarflashi iqlim omillari, o‘simliklarning tabiati, ularning yoshi, hosilning miqdori va qo‘llaniladigan agrotexnologik tadbirlarga qarab belgilanadi. |
| M8 | **Urug’mevali o’simliklar va ularning turlari**<br>Meva daraxtlariga shakl berish bilan daraxtning hosilga kirish muddatlarini o‘zgartiradi, uning mahsuldorlik davrini uzaytirish, mustahkam, yoritilgan shox-shabba tuzish, bog‘larni parvarish qilishni qulaylashtirish, yildan-yilga meva berishini tartibga solish, daraxt hosildorligini oshirish mumkin va hokazo. |
| M9 | **Danakli meva o’simliklari va ularning turlari**<br>Kurtak payvand o’tkazishni tashkillashtirish, muddatlari, usullari va sharoitlari. Payvandtaglarni kurtak payvand qilishga tayyorlash. Urug’ mevali, danak mevali va yong’oq mevali turlarini kurtak payvand qilish. Kurtak payvand qilingandan so’ng ularning parvarishi. Qalamcha payvand usullari. Qishki payvand texnologiyasi. Ko’chatlarni oraliq payvand qilish bilan yetishtirish. Bir yoshli ko’chatlar yetishtirish texnologiyasi. Ko’chatzorlarda gerbisidlarni qo’llash. Bir yoshli va ikki yoshli ko’chatlarni shakllantirish. Ko’chatlarni kovlashga tayyorlash. Ko’chatzorda aprobasiya o’tqazish. Defolyasiya o’tqazish. |
| M10 | **Yong‘oq mevali ekinlarning bioekologiyasi va yetishtirish texnologiyasining xususiyatlari** |

| | |
|---|---|
| | Subtropik mevali ekinlarning biologik asoslari, muhit omillarga munosabati, bioekologiyasi va yetishtirish texnologiyasining xususiyatlari. Bog‘ barpo qilish, parvarish tadbirlari, hosilni chamalash, yig‘ish, hosildorlik. |
| M11 | **Unabi bog‘larni parvarishlash agrotexnikasi**<br>Yong‘oq mevali ekinlarning biologik asoslari, muhit omillarga munosabati, bioekologiyasi va yetishtirish texnologiyasining xususiyatlari. Bog‘ barpo qilish, parvarish tadbirlari, hosilni chamalash, yig‘ish, hosildorlik. |
| M12 | **Meva o‘simliklarini bohorgi sovuqlardan saqlash va hosilini parvarish qilish**<br>Rezavor mevali ekinlarning biologik asoslari, muhit omillarga munosabati, bioekologiyasi va yetishtirish texnologiyasining xususiyatlari. Bog‘ barpo qilish, parvarish tadbirlari, hosilni chamalash, yig‘ish, hosildorlik. |
| | **7 - semestr** |
| M13 | **Sitrus ekinlar ko’chatini yetishtirish texnologiyasi.**<br>Sitrus o’simliklarni sun’iy tuman xosil qiluvchi turlicha qurilmalarda yashil va yarim yog’ochlangan qalamchalardan ko’paytirish usuli oddiy ko’paytirish usuliga nisbatan arzon, qulay va iqtisodiy samarali usul hisoblanib, uning iqtisodiy samaradorligi 500,9% tashkil qiladi. |
| M14 | **Mevali bog’lar barpo qilish va meva ko’chatlarini ekish.**<br>Meva bog’i borpo qilish uchun joy tanlash va bog’ maydonini tashkil kilish. Meva turlari va navlarini tanlash xamda tur va naviga qarab daraxtlarni joylashtirish usulini joriy kilish. Bog’ meva daraxtlarini joylashtirish usullari va qator oralaridan foydalanish. Bog’ uchastkasini rejalash. Bog’larni sug’orish, o’g’itlash va mulchalashning ahamiyati. |
| M15 | **14-mavzu. Mevali bog’lar barpo qilish va meva ko’chatlarini ekish.**<br>Meva bog’i borpo qilish uchun joy tanlash va bog’ maydonini tashkil kilish. Meva turlari va navlarini tanlash xamda tur va naviga qarab daraxtlarni joylashtirish usulini joriy kilish. Bog’ meva daraxtlarini joylashtirish usullari va qator oralaridan foydalanish. Bog’ uchastkasini rejalash. Bog’larni sug’orish, o’g’itlash va mulchalashning ahamiyati. |
| M16 | **Meva bog’ida shakl berish va qirqish.**<br>Meva daraxtlariga shakl berish va kesish axamiyatli jihatlarini, hosildorlikni oshirish omillarini o’rganish. Meva daraxtlariga shakl berish usullari. Meva o’simliklarini butash davrlari va texnikasi. Palmetta daraxtlariga shakl berish. |
| M17 | **Mevali daraxtlarni yozgi muddatda kesish.**<br>Meva daraxtlarini yozgi shakl berish va kesish axamiyatli jihatlarini, hosildorlikni oshirish omillarini o’rganish. Meva daraxtlariga shakl berish usullari. Meva o’simliklarini butash davrlari va texnikasi. Palmetta daraxtlariga shakl berish. |
| M18 | **Hosilli meva bog’larini parvarish qilish.**<br>Meva va rezavor meva o’simliklarini sovuqqa chidamliligini oshirish yo’llari, zovuqdan zararlangan bog’larni qayta tiklash, meva daraxtlariga tirgovuch qo’yish, bog’larni bahorgi sovuqlardan himoya qilish, meva daraxtlarining gullashini sovuqlardan himoya qilish tadbirlarini o’rganishdan iborat. |
| M19 | **Urug’ mevali daraxtlarni hosil berishidagi solkashlikni bartaraf qilish tadbirlarni.**<br>Meva va rezavor meva o’simliklarini hosil berishda solkashligini bartaraf qilish usullarin o’rganish. Solkashlikni kelib chiqish sabablari va solkalikka uchrovchi daraxtlarni o’rganish. |
| M20 | **Subtropik meva ekinlarini yetishtirish**<br>Subtropik meva ekinlaridan anor, anjir, xurmo, chilonjiyda o’simliklarini biologiyasi. Subtropik o’simligini xalq xo’jaligidagi ahamiyati, qisqacha tarixi, asosiy sanoat ahamiyatiga ega bo’lgan rayonlar, subtropik o’simligini yovvoyi turlari va xillari hamda navlari va ulardan xo’jalikda foydalanish, ularni biologik xususiyatlari. Subtropik meva ekinlar navlarini tuproq va iqlim sharoitiga bo’lgan talabi |
| M21 | **Sitrus mevali ekinlarni yetishtirish**<br>Sitrus o’simliklarini oynali issiqxonalarda ya’ni teplisalarda yetishtirishning axamiyati quydagilardan iborat: xosildorligining yuqori bolishi, sifati, rangi va tavar xususiyatlarining yuqori bo’lishi bilan ajralib turadi. Bunda kuyosh nuridagi infra qizil nurlarning o’simliklarga to’la yetib kelishi ta’minlanadi |
| M22 | **Yong’oq mevali ekinlarni yetishtirish**<br>Yong’oq mevali ekinlaridan grek yong’og’i, bodom, pista va pekan o’simliklarini biologiyasi. Yong’oq mevali o’simliklarning xalq xo’jaligidagi ahamiyati, qisqacha tarixi, asosiy sanoat ahamiyatiga ega bo’lgan rayonlar, yong’oq o’simligini yovvoyi turlari va xillari hamda navlari va ulardan xo’jalikda foydalanish, ularni biologik xususiyatlari. Yong’oq mevali ekinlar navlarini tuproq va iqlim sharoitiga bo’lgan talabi. |
| M23 | **Rezavor mevalarning agrotexnik xususiyatlari**<br>Rezavor meva o’simliklarining xalq xujaligidagi ahamiyati.Qulupnay, qulupnayzorni parvarish qilish, Malina, malinazorlar barpo qilish va Smarodina (Qorag’at)ni xalq xujaligidagi ahamiyati va istiqbollari. Rezavor mevali bog’larni tog’li zonalarda barpo qilish, bog’larni loyixalash va loyixa topshirig’ini tuzish. Bog’ kvartallarining hajmi, shakli va joylashtirish relyefi, tashkiliy – iqtisodiy omillari, sug’orish tarmoqlarini joylashtirish, sug’orish texnikasi va himoyalash usullari. Terassalarda rezavor mevali ekinlarni joylashtirish. |
| M24 | **Tropik meva ekinlarini yetishtirish**<br>Tropik meva ekinlaridan kivi, papaya, banan, ananas o’simliklarini biologiyasi. Tropik o’simligini xalq xo’jaligidagi ahamiyati, qisqacha tarixi, asosiy sanoat ahamiyatiga ega bo’lgan rayonlar, tropik meva o’simliklarining yovvoyi turlari va xillari hamda navlari va ulardan xo’jalikda foydalanish, ularni |

| | |
|---|---|
| | biologik xususiyatlari. Tropik meva ekinlar navlarini tuproq va iqlim sharoitiga bo'lgan talabi. |
| M25 | **Meva ekinlarining tinim davri, o'sish va rivojlanish davrlari** Meva daraxtlarida tur va naviga hamda tashqi muhit omillariga qarab o'sish va hosil berish davrlari har xil bo'ladi. |
| M26 | **Meva ekinlarining tashqi omillarga bo'lgan talabi** Meva ekinlari o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi ko'p jihatdan tashqi muhit omillariga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, iqlim va tuproq omillari meva ekinlarini o'sishiga va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. |
| M27 | **Meva ekinlarini ko'paytirishning biologik asoslari** Meva va rezavor-meva o'simliklari jinsiy (urug'dan) va jinssiz (vegetativ) yo'l bilan ko'payadi. Yangi navlar yaratish va payvandtaglar yetishtirish uchun jinsiy ko'payish usulidan foydalaniladi. |
| **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.** | |
| **6 - semestr** | |
| A1 | Mashg'ulot. Urug'li, danakli, yong'oq mevali, subtropik mevali daraxt va butalarning turlari hamda botanik ta'rifi. |
| A2 | Meva o'simliklarini urug'ini sifatini aniqlash usullari |
| A3 | Meva urug'larini stratifikatsiya qilish usullari |
| A4 | Meva o'simliklarining morfologik tuzilishi |
| A5 | Mevali daraxt ko'chatzorlari |
| A6 | Payvand va payvandlash texnologiyasi |
| A7 | Payvand va payvandlash texnologiyasi |
| A8 | Mevali daraxt ko'chatlarini yetishtirishda qo'llaniladigan payvand pichoqlari, boshqa anjomlar, ularga qo'yiladigan talablar |
| A9 | Meva ko'chatzorining dalalarida amalga oshiriladigan tadbirlar |
| A10 | Olma( Malus. d) Biologik xususiyatlari, bog'larni barpo qilish va parvarishlash agrotexnikasi |
| A11 | O'rik (Armenica Mill.) Biologik xususiyatlari, bog'larni barpo qilish va parvarishlash agrotexnikasi |
| A12 | Yong'oq (Juglaps L.) Biologik xususiyatlari, bog'larni barpo qilish va parvarishlash agrotexnikasi |

| | |
|---|---|
| A13 | Unabi bog'larni barpo etish, parvarishlash agrotexnikasi va hosilni yig'ish |
| A14 | Behi ( Cydoniya Mill) avlodiga mansub turlar va ularning morfologik tuzilishi bilan tanishish. |
| A15 | Sitrus o'simliklardan limonni, apelsinni va mandarinni standart navlarini tavsifi |
| **7-semestr** | |
| A16 | Rezavor mevali o'simliklarning istiqbolli navlariga tavsif |
| A17 | Mevali o'simliklarning payvandtaglarini tavsifi |
| A18 | Urug'li, danakli va boshqa mevali o'simliklarni mevalarining kimyoviy tarkibini o'rganish |
| A19 | Mevali bog'larni oziqlantirish uchun organo-mineral o'g'itlar miqdorini hisoblash |
| A20 | Mevali bog'larni sug'orish bo'yicha xisob-kitoblar |
| A21 | Mevali daraxtlarga shakl berish va kesish |
| A22 | Mevali daraxtlarga yozgi muddatda shakl berish |
| A23 | Meva ko'chatzorini tashkil etishda hisob-kitoblar |
| A24 | Meva o'simliklarini vegetativ usulda ko'paytirish va yashil qalamchalaridan ko'chatini yetishtirish |
| A25 | Mevali bog' barpo etish, loyihasini tuzish bo'yicha hisob-kitoblar |
| A26 | Tog'li yerlarda mevali bog' barpo etish, loyihasini tuzish va parvarishlash |
| A27 | Meva hosilini yig'ib-terib olish rejasini tuzish |
| A28 | Mevali o'simliklarni yetishtirishning taxminiy agrotexnik rejasini ishlab chiqish |
| A29 | Meva ko'chatzorining birinchi dalasida amalga oshiriladigan tadbirlar |
| A30 | Tayyor ko'chatlarni kovlab olish, saqlash va ekishga tayyorlash |
| **7 - semestr uchun ajratilgan Kurs ishi** | |
| K1 | Meva ko'chatzorining vazifasi va asosiy qismlari |

| | |
|---|---|
| K2 | Rezavor meva ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati |
| K3 | Ko'chatlarni ekish usuli, sxemasi va ko'chat qalinligi |
| K4 | Meva daraxtlarini kesishning ahamiyati |
| K5 | Meva daraxtlariga shakl berishning ahamiyati |
| K6 | Xurmoning biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi |
| K7 | Meva ekinlarini ko'paytirish usullari (vegetativ va generativ) |
| K8 | Qulupnay yetishtirish texnologiyasi |
| K9 | O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan meva ekinlari |
| K10 | Yong'oq yetishtirish texnologiyasi |
| K11 | Meva ko'chatlariga shakl berish, ularni parvarish qilish |
| K12 | Yong'oq mevalarning turlari va botanik nomlari |
| K13 | Bog' qator oralaridan foydalanish usullari. |
| K14 | Shaftolining biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi |
| K15 | Limonni issiqxonalarda yetishtirish texnologiyasi |

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

**"Mevachilik 1-2 qism"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari |
|---|---|
| 1. | Qarigan bog'larni yoshartirish texnologiyasi |
| 2. | Bog'larda oldidan hosilni aniqlash usullari |
| 3. | Bog'larda sanitar kesish usullari va uni o'tkazish texnologiyasi |
| 4. | Meva o'simliklarining individual rivojlanishi. O'simliklarning qarish va yoshlanish nazariyasi |
| 5. | Meva va rezavor meva o'simliklarining yer ustki va yer ostki qismlarining o'sishi, rivojlanishi va gul kurtaklarining hosil bo'lishi |
| 6. | O'zbekistonda kam ekiladigan mevali ekinlarni ta'riflash. |
| 7. | Olmani intensiv navlarini parvarish qilish texnologiyasi. |
| 8. | O'zbekistonda yetishtiriladigan o'rikni navlariga tasnif bering |
| 9. | Anjir ko'chatini yetishtirish texnologiyasi |
| 10. | Olmani kesish va butash texnologiyasi |
| 11. | Anor ko'chatini yetishtirish va anorzorlarni barpo qilish |
| 12. | Meva va rezavor meva o'simliklarining o'sishi va rivojlanishi haqidagi ta'limot |
| 13. | Mevachilikda qo'llaniladigan sug'orish usullari. |
| 14. | Meva bog'i barpo qilish texnologiyasi |
| 15. | Rezavor mevalardan qulupnay yetishtirish texnologiyasi. |
| 16. | Xurmoni ko'chatini yetishtirish va undan bog' barpo qilish. |

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- meva o'simliklarini turlari, botanik va morfologik tuzilishi, ta'rifi, meva ekinlarini biologik xususiyatlari va o'simliklarning hayotiy omillarga talablari, o'simliklarga xos hayotiy omillarni muvofiqlashtirish yo'llari va tadbirlari; meva ekinlarini ko'paytirish usullari va ularni qo'llash tartib texnologiyasi haqida **bilimlariga ega bo'ladi.**<br>• - o'stiriladigan meva ekinlari turlari va urug'larini aniqlash, meva ekinlarining agrobiologik xususiyatlariga oid tushunchalar, hamda hosildorligi aniqlash, meva ko'chatini ko'paytirishning biologik asoslarini, meva ekinlari turi va naviga muvofiq maxsulot yetishtirish texnologiyalarini tashkil qilishn **ko'nikmalariga ega bo'lishadi.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• *munozara,*<br>• *o'z-o'zini nazorat.*<br>• "Aqliy hujum",<br>• "Muammo";<br>• Krossvord<br>• Annogrammalar<br>• Ko'chma dars mashg'ulotlari |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |

**6. ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. D.S.Normurodov,I.T.Normuratov,S.T.Sanayev,E.I.Hamdamova "Uzumchilik" Darslik SamDU nashri, 2021.

2. D.S.Normurodov,B.X.Xalmirzaev, K.SH.Bozorov, I.T.Normuratov, M.Z.Xolmuradov. "Lalmikor Mevachilik". O'quv qo'llanma. SamDU nashri, 2021.
3. Ostonaqulov T.E, S.Ya.Islamov,X.X.Xonqulov,S.T.Sanaev,D.K.Xolmirzaev. "Mevachilik Va Sabzavotchilik (Mevachilik)" Darslik, 2019
4. T.E.Ostonaqulov, B.X.Xalmirzayev, "Yong'oq navlari va yetishtirish texnologiyasi", O'quv qo'llanma, 2016.
5. T.E.Ostonaqulov, B.X.Xalmirzayev, S.X.Narziyev "Meva ko'chatlarni yetishtirish intensive bog' va tokzorlar agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar" O'quv qo'llanma, 2012.
6. D.Y.Yormatova,M.Y.Ibrohimov,D.S.Yormatova. "Meva-Sabzavotchilik" Darslik 2008

**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekistan" NMIU, 2017. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq; farovonligining garovi. "O'zbekistan" NMIU, 2017.-47 6.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tankidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekistan" NMIU, 2017. - 103 b.
4. Yunusov R, Yuldoshov L T, Ganiyeva F A, Meva ekinlari biologiyasi o'quv qo'llanma 2023
5. D.S.Normurodov., Sh.Abrorov., Sh.N.Rajametov., B.X.Xalmirzayev., S.T.Sanayev., I.Normuratov., B.S.Mamatov. Intensiv mevachilik. Darslik. - Samarqand, 2021; 290 b.
6. D.S.Normurodov., I.Normuratov., S.T.Sanayev I.Namozov, A.Raximov, L.B.Xalmirzayeva. Lalmikor mevachilik. Darslik – Samarqand, 2022.- b.

**AXBOROT MANBALARI:**

www.gov.uz – O'zbekistan Respublikasi hukumat portali
www.Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
www.soilfertilite.
www.Worldfertilizer
www.google.ruc
samdu.uz
www.z-lib.org
www.cyberlininka.ru
www.elibrary.ru
toshdau.uz

| | |
|---|---|
| 7. | Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>**M.A.Xayitov-** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedra mudiri, dotsent.<br>**Fan o'qituvchisi** -Usmonov Ravshan Suvonovich, assistenti. |
| 9. | **Taqrizchilar:** |
| | D.S.Normuradov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi professori, q.x.f. doktori. **(93)356,02,72**<br>S.T.Sanaev – Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **(93)297,00,22** |

Universitetning 20__-yil _____dagi ___-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

**Rais –Sh.T.Xoliqulov**

**Kafedra mudiri:** **M.A.Xayitov**

**Institut o'quv uslubiy kengash raisi:** **Sh.A.Mamasov**

**Institut direktori:** **T.F.Rajabov**

**Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor:** **A. S. Soleyev**

1-O'QUV USLUBIY BOSHQARMA

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Mevachilik 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga**

**TAQRIZ**

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Mevachilik fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Mevachilik o'qitishdan maqsad meva ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi to'g'risidagi va mevachilikning ahvoli, istiqbollari, meva ekinlarining biologiyasi, meva ekinlaridan mo'l, sifatli hamda arzon hosil yetishtirish texnologiyasi hamda mevachilikka yangi kirib kelgan intensiv meva navlarini ko'paytirishga qaratish. Egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo'jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun Mevachilik bo'yisha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni, tannarxi arzon, eksportbob mevalarni yetishtirishni uchun agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, yangi navlarni o'rganish va qo'llash texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi 3-4-kurs talabalari uchun Mevachilik fani 6-7 semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi uchun Mevachilik fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrasi professori, q/x.f.doktori** **D.S.Normurodov**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60811800 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Mevachilik 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga**

**TAQRIZ**

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Mevachilik fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Mevachilik o'qitishdan maqsad meva ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi to'g'risidagi va mevachilikning ahvoli, istiqbollari, meva ekinlarining biologiyasi, meva ekinlaridan mo'l, sifatli hamda arzon hosil yetishtirish texnologiyasi hamda mevachilikka yangi kirib kelgan intensiv meva navlarini ko'paytirishga qaratish. Egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo'jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun Mevachilik bo'yisha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni, tannarxi arzon, eksportbob mevalarni yetishtirishni uchun agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, yangi navlarni o'rganish va qo'llash texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun Mevachilik fani 6-7 semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi uchun Mevachilik fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

**Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori.** **S.T.Sanaev**

DE'LONXONA VA ARXIV